

FARG'ONA VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2021- yil 1- may holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Korxona va tashkilotlar soni


(1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- may holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish surʼati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

4



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-aprel oyida)



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)

6


Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **18,5** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik,
ovchilik va bu sohalarda xizmat
ko'rsatish
■ O'rmon xo'jaligi
■ Baliq xo'jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

7



*Jami faoliyat
ko'rsatayotgan sanoat
korxona va
tashkilotlarning
umumiyligi o'tgan
yilning shu davriga
nisbatan **22,1** foizga
oshdi*



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2021- yil 1- may holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 9,5 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 122,1 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 122,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 95,9 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 108,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,1 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 104,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,7 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 103,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- may holatiga ko'ra, birlikda)




*Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,9** foizga oshdi*



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **58,3** foizga oshdi




Xususiy korxonalar




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

10



- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

890



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

31



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

65



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



141 yashash
bo'yicha xizmatlar



2 145
Oziq-ovqat
mahsulotlari va
ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar


2021- yil 1- may holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2,3 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 129,8 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 130,3 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 94,9 %), yashash bo'yicha xizmatlarning - 111,2 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 5,1 %) o'sishidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

12



Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- may holatiga ko'ra, birlikda)

13



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **15,6 foizga oshdi**




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



35,1
foizga oshdi




Oilaviy korxonalar



9,4
foizga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




1,7
foizga oshdi



Tashish va saqlash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)

14




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- may holatiga ko'ra 5,6 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,7 mingtaga yoki 142,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5,3 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,5 mingtaga yoki 139,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 470 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 218 taga yoki 186,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- may holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- may holatiga ko'ra 21,2 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,7 mingtaga yoki 128,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 20,4 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,3 mingtaga yoki 126,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1,9 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 783 taga yoki 171,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- may holatiga ko'ra 488 tani tashkil etib, ulardan 474 tasi yoki 97,1 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 49 taga yoki 111,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatimizda 19 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-aprel oylarida, birlikda)



Farg'ona viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

18

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
Belorussiya Respublikasi	7	4	3
Ozarbayjon Respublikasi	6	2	4
Qirg'iziston Respublikasi	35	28	7
Qozog'iston Respublikasi	14	12	2
Rossiya Federatsiyasi	114	89	25
Tojikiston Respublikasi	6	5	1
Turkmaniston Respublikasi	1	1	
Ukraina Respublikasi	4	3	1
Armaniston Respublikasi	4	2	2

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

19



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	163	218	327	429	474
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2	4	19	28	26
Sanoat	115	155	192	243	264
Qurilish	2	5	7	12	19
Savdo	15	25	57	75	91
Tashish va saqlash	4	4	7	12	13
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7	9	14	15	13
Axborot va aloqa	3	2	4	4	4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	5	7	10	9
Boshqa turlar	10	9	20	30	35

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)

20



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

21

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Farg'ona viloyati	474	313	161
Oltiariq tumani	17	10	7
Qo'shtepa tumani	7	6	1
Bag'dod tumani	13	9	4
Buvayda tumani	10	7	3
Beshariq tumani	6	4	2
Quva tumani	21	13	8
Uchko'prik tumani	15	11	4
Rishton tumani	15	12	3
So'x tumani	4	3	1
Toshloq tumani	13	8	5
O'zbekiston tumani	23	21	2
Farg'ona tumani	23	13	10
Dang'ara tumani	16	8	8
Furqat tumani	7	4	3
Yozyovon tumani	5	1	4
Farg'ona shahar	163	102	61
Qo'qon shahar	64	41	23
Quvasoy shahar	28	22	6
Marg'ilon shahar	24	18	6

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

22



2021- yil 1- may holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Farg'ona shahar (17,2 %), Qo'qon shahar (12,4 %), Marg'ilon shahar (9,8 %), Uchko'prik tumani (5,2 %), Dang'ara tumani (4,7 %), Oltiariq tumani (4,7 %), Quva tumani (4,7 %), O'zbekiston tumani (4,6 %), Buvayda tumani (4,5 %), Toshloq tumani (4,3 %), Farg'ona tumani (3,9 %), Bag'dod tumani (3,7 %), Rishton tumani (3,5 %), Beshariq tumani (3,3 %), Qo'shtepa tumani (3,2 %), Quvasoy shahar (3,2 %), Furqat tumani (2,5 %), So'x tumani (2,4 %), Yozyovon tumani (2,2 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil yanvar-aprel oylarida, birlikda)

2021- yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Farg'ona shahar (13,8 %), Qo'qon shahar (10,3 %), Marg'ilon shahar (8,4 %), Oltiariq tumani (6,2 %), Uchko'prik tumani (6,1 %), Bag'dod tumani (5,1 %), Farg'ona tumani (5,0 %), O'zbekiston tumani (4,9 %), Quva tumani (4,9 %), Rishton tumani (4,5 %), Toshloq tumani (4,2 %), Buvayda tumani (4,2 %), Dang'ara tumani (3,8 %), Quvasoy shahar (3,8 %), Beshariq tumani (3,7 %), Qo'shtepa tumani (3,5 %), Yozyovon tumani (2,7 %), Furqat tumani (2,6 %), So'x tumani (2,3 %), hissalariga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

23



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



**Hududlar kesimida jami faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital
ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy
korxonalarga taqsimlanishi**

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

24



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish etib belgilangan. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnomaga tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the official website of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main header reads "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The left sidebar has a section titled "RASMIYIY STATISTIKA" with various links like "E'on qilish taqimi", "Metama'lumotlar", etc. The central part of the page features a search form for "Statistik klassifikatsiyalar" (Statistical classification) using a code ("STIR kodini kiritning"). The right sidebar lists "FOYDALI MA'LUMOTLAR" such as "Ahollini ro'yxtatga olish-2022", "Harakatlar strategiyasi", etc.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Farg'ona viloyati statistika
boshqarmasi Statistik
registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:73 249-87-34**